

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TELEPSIXIATRIYA XIZMATLARINI JORIY
ETISHNING DOLZARBLIGI

Abdurashitova Sharofat Abdumajitovna

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

G'apponova Gulasal Baxtiyor qizi

TDTU 2-bosqich menenjment yunalishi talabasi

Annotatsiya: *Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba yoshlar orasida ruhiy buzilishlar ko'rsatkichining ortib borishi sog'liqni saqlash tizimidan yangi, moslashuvchan yondashuvlarni talab etayotgan bir vaqtda telepsixiatriya ya'ni psixiatrik xizmatlarni masofaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali ko'rsatish, talabalar uchun qulay va samarali model sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu tezisdagi telepsixiatriyaning talabalar ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlashdagi asosiy ahamiyati va ilmiy asoslangan samaradorligi qisqacha tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *telepsixiatriya, talabalar, ruhiy salomatlik, masofaviy xizmat, depressiya.*

Аннотация: *В условиях роста показателей психических расстройств среди студентов высших учебных заведений система здравоохранения нуждается в новых и гибких подходах. Телепсихиатрия, то есть оказание психиатрических услуг с использованием дистанционных информационно-коммуникационных технологий, формируется как удобная и эффективная модель для студентов. В данном тезисе кратко анализируются ключевая роль телепсихиатрии в поддержке психического здоровья студентов и её научно обоснованная эффективность.*

Ключевые слова: *телепсихиатрия, студенты, психическое здоровье, дистанционные услуги, депрессия.*

Abstract: *Amid the growing prevalence of mental disorders among university students, the healthcare system requires new and flexible approaches. Telepsychiatry, defined as the provision of psychiatric services through remote information and communication technologies, is emerging as a convenient and effective model for students. This thesis briefly analyzes the key role of telepsychiatry in supporting students' mental health and its evidence-based effectiveness.*

Keywords: *telepsychiatry, students, mental health, remote services, depression.*

Talabalar orasida ruhiy buzilishlarning ko'payishi oliy ta'lim tizimida psixologik va psixiatrik yordam xizmatlarini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Zamonaviy raqamli texnologiyalar bu borada yangi imkoniyatlar yaratib, masofaviy psixiatrik xizmatlarni keng joriy etish uchun sharoit ta'minlamoqda. Shu nuqtai nazardan, telepsixiatriya talabalar ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlashda muhim va istiqbolli yo'nalish sifatida qaraladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga asosan, 15–29 yosh oralig'idagi yoshlarda ruhiy buzilishlar keng tarqalgan bo'lib, depressiya ular orasida yetakchi kasalliklardan biri hisobalanmoqda. American College Health Association hisobotlariga nazar solsaylik talabalar orasida xavotir va depressiv simptomlar yuqori darajada uchrashi qayd etilgan. Bu holat universitetlarda ruhiy yordam xizmatlariga ehtiyoj ortib borayotganini ko'rsatadi.

Telepsychiatry aynan shu ehtiyojni qoplash imkonini beradi. American Psychiatric Association tomonidan e'lon qilingan ilmiy tadqiqotlar masofaviy psixiatrik konsultatsiyalar klinik samaradorlik jihatidan an'anaviy yuzma-yuz konsultatsiya kabi samara berayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, talaba yoshlar orasida depressiya simptomlarini kamayishi kuzatilgan.

Talabalar uchun telepsychiatryning ustunliklari quyidagilardan iborat:

- geografik va vaqt cheklovlarining kamayishi;
- stigma omilining pasayishi (masofadan murojaat qilish osonroq);
- tezkor psixiatrik baholash va dori-darmonlarni nazorat qilish imkoniyati.

Shu bilan birga, maxfiylikni ta'minlash, raqamli tengsizlik va klinik xavfsizlik protokollarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Xulosa

Telepsixiatriya talabalar ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlashda samarali, ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan qulay vosita hisoblanadi.

Global statistik ma'lumotlar yoshlar orasida ruhiy muammolar keng tarqalganini tasdiqlar ekan, universitetlar telepsychiatry xizmatlarini tizimli ravishda joriy etishi zarur.

Bu yondashuv erta tashxis, uzluksiz monitoring va davolashning qulay shaklini ta'minlaydi hamda ta'lim jarayonining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. World Health Organization. (2022). World Mental Health Report: Transforming mental health for all. Geneva: WHO.

— Yoshlar orasida ruhiy buzilishlar tarqalishi va global statistik ma'lumotlar keltirilgan.

2. American Psychiatric Association. (2020). Telepsychiatry Toolkit and Evidence Overview. Washington, DC: APA.